

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti



7491

ISSN: 2992-8982

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Исандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant	
Optimizatsii operatsionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov	334
Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana	341
Fattahova Munisa Abduxamitovna	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI AKTIVLARNI BOSHQARISHNING DOLZARB MASALALARI

Do'sanov Doniyor

ChEKI "Hamkorbank" ATB Samarqand mintaqaviy bank xizmatlari ofisi Korporativ xizmatlar bo'limi boshlig'i, magistr

Annotatsiya: Tijorat banklarida muammoli aktivlarni kamaytirish choralarini ko'rish bugungi kunda bank tizimidagi dolzarb mavzularidan biridir. Maqolaning amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimiz banklaridagi xususan "Hamkorbank" ATB faoliyatida muammoli aktivlar holati va ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlil usullari yordamida o'rgandik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida muammoli aktivlarni kamaytirishni choralar bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: Bank aktivlari, muammoli aktivlar, muammoli kreditlar, kredit portfeli, investitsiya portfeli, kredit riski.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРОБЛЕМНЫМИ АКТИВАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Аннотация: На сегодняшний день принятие мер по снижению проблемных активов в коммерческих банках является одной из актуальных проблем в банковской системе. С целью повышения практической значимости данной статьи мы изучили ситуацию с проблемными активами в банках нашей страны, особенно в деятельности АКР "Хамкорбанк", а также установили, и в какой степени с ними проводится работа с использованием методов эконометрического анализа на основе статистических данных. На основе изученных и проанализированных данных сформулированы научно-практические выводы, предложения и рекомендации, направленные на меры снижения проблемных активов.

Ключевые слова: банковские активы, проблемные активы, проблемные кредиты, кредитный портфель, инвестиционный портфель, кредитный риск.

TOPICAL ISSUES OF TROUBLE ASSETS MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS

Abstract: Currently adoption of measures to reduce trouble assets in commercial banks is one of the topical issues in the banking system. In order to enhance the practical significance of this article, we have studied the situation with trouble assets in the banks of our country, especially in the activities of "Hamkorbank" JSCB, and also have determined the extent to which they are dealt with using methods of econometric analysis based on statistical data. In reliance upon the researched and analyzed data, scientific and practical conclusions, proposals and recommendations aimed at measures to reduce trouble assets, have been formulated.

Key words: banking assets, trouble assets, non-performing loans, loan portfolio, investment portfolio, credit risk.

KIRISH

Tijorat banklari barqarorligini ta'minlash uchun birinchi navbatda ularni resurs ba'zasini mustahkamlash, likvidililikni ta'minlash hamda daromadlilikni oshirish borish lozim bo'ladi. Buning uchun tijorat banklari tomonidan aktivlar va passivlarni to'g'ri boshqarilishi talab etiladi. Aktivlarni to'g'ri boshqara olmagan banklarda muammoli aktivlar vujudga keladi. Aynan muammoli aktivlar bank likvidligi, daromadligi hamda ularni resurs bazalarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu bois ularning kamaytirish, bugungi kunda tijorat banklari oldida turgan muhum masalalardan biridir. Natijada banklarda yangi bank xizmatlarini tashkil etish va/yoki mavjudlarini sifatini oshirish choralar ko'rilmaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli aktivlar, aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish jarayonida vujudga keldi. Shu sababli eng avvalo aktivlar va ular bilan bog'liq operatsiyalarga to'xtalsak.



"Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomda aktivlarga quydagicha ta'rif keltirilgan (Nizom, 2015):

Aktivlar – kredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatları, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda moliyalash bilan bog'liq barcha boshqa talablardan iborat bo'ladi.

Iqtisodchi olim, professor Berdiyarov (2017) tijorat banklari aktivlari va aktiv operatsiyalar xususida to'xtalib, ularni mohiyatini quydagicha yoritib bergan:

Tijorat banklari aktivlari – bu bankka tegishli hamda moddiy qiymatga ega bo'lgan qiymatliklar: naqd mablag'lar, qarzga berilgan mablag'lar, binolar va asbob-uskunalardan tashkil topadi. Bulardan tashqari, bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud bo'lib, bular o'zlarining moddiy shakliga ega bo'lmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etadi.

Har qanday bank ham o'zining aktivlari tarkibini samarali shakllantirishda ma'lum bir muammolarga uchralaydi. Bank aktivlarining sifati avvalo, aktivlarning maqsadga muvofiq tuzilishiga, liqidlitligiga, aktiv amaliyotlarning diversifikatsiyasiga, aktivlarning risklilik darajasiga, muammoli aktivlarning salmog'iga va aktivlarning o'zgaruvchanlik sifatlariga bog'liq.

Lavrushin O. I va boshqalar (2008) tomonidan nashr qilingan kitoblarda bank aktivlari – to'liq mulklar va huquqlar qaysiki, o'z mablag'lari va jalg qilingan mablag'lar hisobidan vujudga kelgan, ulardan aktiv amaliyotlarda kredit muassasalari foydalanadi deb takidlagan. Aktiv amaliyotlardan banklar foya oladi. Bu amaliyotlar hisobi banklarning aktiv hisob raqamlarida yuritiladi. Rossiya qonunchiligiga ko'ra quydagilar bankning aktiv amaliyotlariga kiradi:

- kredit, kassa, valyuta, qimmatbaho metallar va toshlar bilan bog'liq amaliyotlar;
- bank kafolati va kafilliklari berish;
- uchinchi shaxsdan pul ko'rinishdagi talab qilish huquqini sotib olish;
- pul mablag'lari va boshqa mulklarni ishonchli boshqarish, lizing, faktoring, forfeting amaliyotlari va bank qimmatbaho qog'ozlari bilan bog'liq amaliyotlar.
- boshqa amaliyotlar.

Iqtisodiyotda banklarning muammoli aktivlarini samarali boshqarish haqida dastlab o'tgan asrning 60-yillarda AQShda birinchilardan bo'lib tadqiqotlar olib borilgan. O'sha vaqtarda asosan bank kreditlari foiz stavkalaring o'zgarish riskini boshqarishga asosiy e'tibor qaratilgan¹. Keyinchalik "tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning ayrim instrumentlaridan foydalanilgan. Biroq, bozor intensivligining oshib borishi bilan yuqori daromad va risk darajasini maromida saqlash banklarda balansning har ikkala tomonini birgalikda boshqarish zaruriyatini yuzaga keltirdi"².

Muammoli aktivlarini boshqarish bank tomonidan jalg qilingan resurslar va qarz mablag'larini turli (iqtisodiy yoki siyosiy) o'zgaruvchan muhitda himoya qilish instrumenti hisoblanadi. Muammoli aktivlarni boshqarishning asosiy mohiyati shundan iboratki, boshqaruvning alohida usullarini muvozanatlari bir jarayonga birlashtiradi. Shundan kelib chiqqan holda, muammoli aktivlarni boshqarishning asosiy vazifasi – bank balansidagi muammoli aktivlardan tozalash va ularni bartaraf etishdir³.

Taniqli iqtisodchi-olim Piter S. Rouz muammoli aktivlarni boshqarish mohiyatini yanada kengroq ochib berган, ya'ni "muammoli aktivlarni boshqarishning mohiyati bank balansi tarkibini bank strategik programmalari bilan mos kelishini ta'minlovchi strategiyani shakllantirish va chora-tadbirlarni amalgalashirishda ko'rindagi"⁴.

Mazkur ta'riflardan shunday xulosa qilish mumkinki, ya'ni bankda muammoli aktivlarini boshqarish – bu bankning iqtisodiy boshqaruvga oid maqsad va strategiyaga erishishni ta'minlash bo'yicha bankning aktivlari tarkibini to'g'ri shakllantirish va boshqarish jarayonidir.

Bankda muammoli aktivlarini boshqarishga olimlar tomonidan o'zgacha yondashuvlar bor. Jumladan O. I. Lavrushin "Muammoli aktivlarni boshqarishning maqsadi bank bosh strategiyasi natijalarini balans tarkibi va rentabelligiga ko'ra tahlil qilish orqali nomutanosiblikni bartaraf etish yoki to'g'rilash hamda bank faoliyatini risklardan himoyalashdir"⁵ – deya ta'rif beradi.

Fikrimizcha, muammoli aktivlarni boshqarish masalasida, avval bankni boshqarish strategiyasi nuqtayi nazaridan qarash maqsadga muvofiqdir. "Ma'lumki, strategiya asosida maqsadlar tizimi yotadi, ya'ni bank

1 The effect of bank management on liquidity // Academy of Banking Studies Journal. Vol. 1, Issue 4, May 2022. Scopus, ISSN: 1939–2230.

2 O'sha manba.

3 Western and Eastern practices in banking // American Economic Journal: Applied Economics. Vol. 8, Issue 3, 2020. Scopus, (ISSN: 1945–7782).

4 Питер С.Роуз. Банковский менеджмент.

5 Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка. – М.: КНОРУС, 2021. 580 с.



strategiyasining turli vaqt oralig'ida turlicha maqsadlar ko'zlanadi". Shunga ko'ra, vaqt gorizontiga ko'ra muammoli aktivlarni boshqarishning qisqa muddatli va uzoq muddatli aspektlarini farqlash mumkin. Qisqa muddatli (1 yilgacha) aspektda muammoli aktivlarni boshqarishning asosiy maqsadi "me'yoriy risk darajasida sof foiz daromadini maksimallashtirish yoki aksincha, me'yoriy sof foiz daromadi darajasida riskni minimallashtirishdan iborat. Uzoq muddatli aspektda muammoli aktivlarni boshqarishning asosiy maqsadi bank kapitalining bozor qiyamatini maksimallashtirishdan iborat. Bank kapitali bozor qiyamatini oshirib borish bankning rivojlanishi va nazorat organlarining oshib boruvchi talablarini bajarish imkoniyatini yaratadi⁶".

"Muammoli aktivlarni samarali boshqarish siyosati quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim":

- foizlar ko'rinishidagi muammoli aktivlarni kamaytirish;
- foizlar bilan bog'liq bo'limgan daromadlarni olish;
- foiz to'lash bilan bog'liq bo'limgan xarajatlarni nazorat qilish;
- bank kreditlari sifatini ta'minlash;
- likvidlik bo'yicha talablarni ta'minlash;
- kapital yetarlilikini ta'minlash;
- bank balansi tarkibini boshqarish;
- tashqi muhit ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda balans tarkibini operativ o'zgartirish;
- moliyaviy strategiyada belgilangan risk chegarasida foydani maksimallashtirish⁷.

Muammoli aktivlarni samarali boshqarishning maqsadli natijalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- barcha pul oqimi talablarini qoplash uchun yetarli bo'lgan likvidlilik darajasini ta'minlash, mumkin bo'lganda ortiqcha likvidlilikni foydali joylashtirish;
- foiz stavkasi o'zgarishiga ta'sirchan aktivlar o'rtasidagi farqni boshqarish va risklarning me'yoriy chegarasida daromadlarni maksimallashtirish;
- har qanday operativ riskni qoplash uchun yetarli bo'lgan kapital hajmini ta'minlash;
- bank aktivlarini samarali boshqarish va bank daromadini maksimallashtirish maqsadida mahsulot va xizmatlarni baholashni optimallashtirish⁸.

Muammoli aktivlarni samarali boshqarish bazaviy (reakтив) yoki murakkab (proaktiv) bo'lishi mumkin. Muammoli aktivlarni boshqarishni mamlakat regulyatori tomonidan "kapital yetarliliği, likvidlilik, aktivlarning foiz stavkalari va valyuta kursları o'zgarishiga ta'sirchanligi bo'yicha ichki omillar sifatida qabul qilinadi". Mazkur holatda, "aktivlarni boshqarish asosiy vazifasi joriy balans tarkibida mavjud risklarni miqdor jihatdan aniqlash va tahlii qilishga hamda riskni me'yoriy darajada saqlashga qaratiladi". Bunday holatda esa "foiz va valyuta riskini boshqarish maqsadida moliyaviy bozorlardagi faoliyatni cheklashga hamda nafaqat risklarni kamaytirish, balki ularni aktiv samarali va sifatli boshqarishga qaratiladi".

Odatda tijorat banklari aktivlari sifati bank muammoli aktivlarining muvofiq tarkibiy tuzilishi, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiyalanishuvi, riskli aktivlar miqdori, aktivlar daromadliligi va foydaliligi, likvidlilik ko'rsatkichlari va aktivlarni baholash metodlarini qo'llash orqali aniqlanadi.

Iqtisodchi olim V. Usoskin tijorat banklari aktivlarining asosiy turlari bo'lgan kreditlar va kassali aktivlarning sifatini oshirish masalasiga alohida e'tibor bergen. Olim "kredit portfelining sifatini oshirish maqsadida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliliginib baholash tizimini takomillashtirishni, kredit portfelini shakllantirishda diversifikasiya prinsipiqa qattiq rioya etishni taklif qiladi"⁹.

"N. Sokolinskaya muammoli aktivlarni kamaytirishda asosiy e'tibor ularning daromadliligi va likvidlilikiga qaratilishi lozim deb hisoblaydi"¹⁰.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada avval o'rganilgan tadqiqotlarni o'rganib, tahlii qilgan holda tijorat banklarida muammoli aktivlarni kamaytirishga oid yig'ilgan ma'lumotlarni tanlagan tadqiqot usullarimiz va tahliiliy uslublarimizdan foydalanib chuqur tahlilini amalga oshirdik. Tahlil qilib, olingan natija va yechimlarimizdan kelib chiqib xulosalarini shakllantirdik. Bu xulosalarimiz asosida tijorat banklarida muammoli aktivlarni kamaytirish bo'yicha nazariy va amaly taklif, hamda tavsiyalar ishlab chiqqidik.

6 The impact of asset quality on bank risk management // Asian Academy of Management Journal of Accounting and Finance. Vol. 6, Issue 6, 2021. Scopus, ISSN: 1823–4992.

7 Analysis of bank liquidity and asset quality // Annals of Economics and Finance. Vol. 8, Issue 4, 2018. Scopus, ISSN: 1529–7373.

8 Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка. – М.: КНОРУС, 2021. 580 с.

9 Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – Москва: Вазар-Ферро, 2018. – С. 218–276.

10 Н.Соколинская, Лаврушина О.И. Банковское дело. – Москва: ФиС, 2020. – С. 101–102.



TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida muammoli kreditlarni jami kreditlardagi ulushi 1–3% gacha normal holat sifatida e'tirof etiladi. Shundan kelib chiqib O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar salmog'i normal holatda deya e'tirof etishimiz mumkinmi? Quyida keltiradigan tahlilimizda shu holatlarga batafsil to'xtalamiz.

Bugungi kunda tijorat banklariing asosiy vazifasi, kredit berish o'rniiga kreditlarning o'z muddatida qaytarilishi ta'minlashdan iborat bo'lib qolmoqda. Chunki, muammoli kreditlar tijorat banking foyda olib keladigan aktivlarini kamaytiradi, bu esa o'z navbatida, bankning istiqbol rejasini ko'rsatkichlariga erisha olmasligidan da'lalat beradi.

Bank aktivlarining sifatini aniqlashga ularning kredit portfelini o'rnatilgan me'yorlar asosida tafsiflab chiqish orqali erishilishi mumkin. Amaldagi me'yoriy hujjatlarga asoslanib banklar tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha qarzlarning sifati, mijozning kreditga layoqatilik ko'rsatkichlari, uning moliyaviy holati, kredit riskining darajasi, kelajakda kreditni qaytib berish imkoniyati, kreditning ta'minlanganlik darajasi, kreditni to'lash muddatidan necha kun o'tganligi kabilarni inobatga olgan holda guruhlarga tasniflanadi.

1-jadval: Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida ma'lumot, mlrd.so'm¹¹

№	Bank nomi	2023-yil 1-yanvar			2023-yil 1-iyun		
		Kredit port-feli	Shundan,		Kredit port-feli	Shundan,	
			muammoli kreditlar (NPL)	Ulushi, %		muammoli kreditlar (NPL)	Ulushi, %
1	O'zmilliyybank	89 410	2 638	3,0%	88 684	2 698	3,0%
2	O'zsanoatqurilishbank	48 076	1 359	2,8%	52 926	1 519	2,9%
3	Agrobank	43 846	1 685	3,8%	51 398	1 976	3,8%
4	Asaka bank	36 742	1 707	4,6%	36 679	1 634	4,5%
5	Ipoteka bank	32 658	810	2,5%	32 997	996	3,0%
6	Xalq banki	21 666	2 584	11,9%	22 438	2 230	9,9%
7	Qishloq qurilish bank	20 292	790	3,9%	20 912	937	4,5%
8	Mikrokreditbank	13 319	635	4,8%	14 013	741	5,3%
9	Turon bank	9 431	242	2,6%	9 857	296	3,0%
10	Aloqa bank	9 162	186	2,0%	10 343	184	1,8%
11	O'zagroeksportbank	6,2	6,0	96,3%	0,5	0,4	90,4%
12	Hamkorbank	11 423	67	0,6%	13 112	77	0,6%
Respublika bo'yicha jami:		390 049	13 992	3,6%	420 469	14 639	3,5%

Ma'lumotlardan ko'rindaniki, respublikamiz tijorat banklarida 2023-yil 1-yanvar holatiga berilgan kreditlar tarkibida muammoli kreditlar salmog'i 3,6%-ni tashkil etgan bo'lsa, 1-iyun holatiga bu ko'rsatkich 0,1 foizli punktg'a kamaygan. Bizda tadqiqot obyekti bo'lgan "Hamkorbank"da 1-iyun holatiga 13 112 mlrd. so'mlik kredit portfelining 77 mlrd. so'mi yoki 0,6% muammoli kreditlar miqdoriga to'g'ri keladi. Natijada "Hamkorbank" o'zining kredit portfeli tarkibidagi muammoli kreditlar bo'yicha ularni bartaraf yetish va kamaytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar doirasida ish yuritayotganligidan dalolat beradi.

Markaziy bank ma'lumotlariga asosan, joriy yilning 1-iyun holatida O'zbekiston bank tizimidagi muammoli kreditlar ulushi yil boshidan buyon 0,1 foizli punktg'a kamayib 3,5 foizni (14,6 trln. so'm) tashkil etdi¹². Shunday bo'lishiga qaramasdan yil boshidan miqdor nisbatida muammoli kreditlar salmog'i 647 mlrd. so'mga oshgan, ammo tijorat banklari kredit portfelining ham parallel proporsional tarzda oshgani (30,4 trln so'm) sababli, ulush ko'rinishida kamayganini ko'ramiz. Aksariyat banklarda kredit portfelining sifati yaxshilangan.

Ma'lumki, kreditlarning umumiyligi hajmidagi muammoli kreditlarning ulushi kredit portfeli sifatining ko'rsatichi bo'lib, uning oshishi kelajakda jiddiy yo'qotishlarga va likvidlitlik muammolariga olib keladigan asosiy omil hisoblanadi.

Markaziy bankning 2022-yilda bank tizimini rivojlantirish to'g'risidagi hisobotiga ko'ra, 2023-yil boshida mamlakat banklarining muammoli kreditlari hajmi umumiyligi 14,6 trln. so'mni tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar

11 <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1146052/>

12 <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1146052/>



holatiga tijorat banklari kredit portfelining 88 foizi “standart”, 7 foizi “substandart” hamda 5 foizi “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” kreditlar sifatida tasniflangan¹³.

Ma'lumki, amaldagi me'yoriy-normativ hujjalarga ko'ra, to'lov muddatlari 91 kundan 180 kungacha kechiktirilgan aktivlar qoniqarsiz, 181 kundan 365 kungacha kechiktirilgan aktivlar shubhali, 366 kun va undan uzoq davrda kechiktirilgan aktivlar umidsiz deb tasniflanadi.

Yuqoridagi tartib asosida “Hamkorbank” ATB da tasniflangan kredit qo'yilmalarini va ular bo'yicha yaratilgan zaxiralarni yillar kesimida tahlil qilib chiqamiz.

2-jadval: “Hamkorbank”ATB kredit portfelining sifati bo'yicha tasniflanishi (mlrd. so'm)¹⁴

Kredit sifati	2017-yil		2018-yil		2019-yil		2020-yil		2021-yil	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%	Summa	%	Summa	%
Standart	2955,3	94,3	4724,6	94,4	5791,1	96	6255	86	7939,8	83,6
Substandart	59,5	1,9	95,1	1,9	36,2	0,6	175	2,4	294,4	3,1
Qoniqarsiz	62,7	2	60,1	1,2	1809,7	0,3	313	4,3	360,9	3,8
Shubhali	31,3	1	55,1	1,1	42,2	0,7	269	3,7	351,4	3,7
Umidsiz	25,1	0,8	70,1	1,4	12,1	0,2	262	3,6	550,8	5,8
Jami	3133,9	100	5004,9	100	6032,4	100	7273,8	100	9497,4	100

Yuqoridagi jadvalda ATB “Hamkorbank” kredit portfelining sifati bo'yicha tasniflanishi tahlil etilgan bo'lib, 2017-yilda jami kreditlarning 94,3 foizi standart kreditlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2021-yilga kelib esa jami kreditlarning 83,6 foizi standart kreditlarga to'g'ri kelgan. Standart deb tasniflangan kreditlar bo'yicha zaxira yaratilmagan. Bankda kreditlar bo'yicha zaxira tasniflangan kreditlar bo'yicha mos holda 2021-yil yakuni bo'yicha 550,8 mrd. so'm miqdorida shakllantirilgan.

Tijorat banklari kredit portfelining samaradorlik darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri – muddati o'tgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalari tarkibidagi salmog'ini o'zgarishi hisoblanadi.

Kreditning o'z vaqtida qaytarilmasligini va shu sababali muammoli kreditning yuzaga kelishini quyidagi belgilari orqali bilish mumkin:

- qarz oluvchi tomonidan belgilangan muddatda balansning taqdim etilmasligi;
- debtorlik qarzning birdaniga o'sib ketishi;
- qisqa muddatli aktivlar ulushining kamayishi;
- qisqa muddatli kreditorlik qarzlarning noproportional o'sishi;
- likvidlik koeffitsiyentining pasayishi;
- aktivlar tarkibida asosiy kapital ulushining oshishi;
- savdo hajmining pasayishi;
- muddati o'tgan qarzlarning o'sishi;
- operatsion faoliyatdan ko'rilgan zararlarning paydo bo'lishi.

Muammoli kreditlar odatda qarz oluvchining kreditni to'lashi uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmagan hollarda yuzaga keladi. Ba'zi hollarda ular mijozning schyotida mablag'lari bo'la turib, kreditni to'lashni xohlamagan-da ham yuzaga kelishi mumkin. Kredit bo'limi xodimlari shu belgilari yuzaga kelishini birlinchi bo'lib sezmoqliklari va bankni kredit bo'yicha yo'qotishlardan saqlovchi chegara bo'lishlari lozim. Ular bank va mijoz manfaatini saqlab qolgan holda bu moliyaviy qiyinchiliklardan chiqish yo'llarini ishlab chiqishga yordam berishlari, bosh-qacha aytganda, banklar to'lov kuni kreditni undirishni o'ylab o'tirmasdan, mijoz faoliyatida muammolar yuzaga kelgan vaqt dan boshlab mijozga yordam berishlari, ularga ta'sir ko'rsatishlari zarur. Buning uchun bank doimo mijozning faoliyatidan xabardor bo'lishi, o'zi uchun zarur axborotlarni yig'ib, tahlil qilib borishi zarur.

Muammoli kreditlar yuzaga kelish sabablari bo'yicha bir-birdan farq qilsada, ularning oldini olishda qo'yida-gi yondashishlar qo'l kelishi mumkin. Bunda:

13 https://cbu.uz/upload/medialibrary/ca1/Markaziy_bankning_2022_yil_uchun_hisoboti.pdf

14 “Hamkorbank” ATB ning yillik hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



- qarzni restrukturizatsiya dasturini ishlab chiqish;
- qo'shimcha hujjatlar va kafolatlar olish;
- qo'shimcha fondlarni to'xtatish yoki qo'shimcha investitsiya qilish;
- garovni sotish;
- boshqa aktivlarni sotish;
- kafolat bo'yicha to'lovni talab qilish;
- boshqaruvni almashtirish;
- menejment ishlarni olib borish;
- huquqiy ishlarni ko'rib chiqish;
- muammoli krediti mavjud mijozlarga tashqi boshqaruvchi tayinlash.

Ma'lumki, tijorat banklarining ishonchligi va barqarorligini ta'minlash va mustahkamlash Markaziy bank tomonidan muvofiqlashtirib boriladi. Shuning uchun banklar tizimining samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash masalasi turli mamlakatlar Markaziy bankining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Har bir mamlakatda bu sohada o'rnatiladigan nazorat Markaziy bank tomonidan tijorat banklarida ularning aktivlari bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar tashkil qilish va uni doimo barqaror ushplash masalasini qo'yadi.

Hozirda O'zbekiston bank tizimida shunday amaliyot borki, ya'ni banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning muddatlarini uzaytirish amaliyoti keng qo'llani moqda, aslida bu banklarda yuzaga kelishi aniq bo'lgan real muammoli kreditlardir. 2022-yilda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning qaytarish muddatlarini uzaytirish amaliyoti davom ettirildi¹⁵.

Xususan, 2022-yil davomida mijozlarning jami 36 trln. so'mlik kreditlari bo'yicha to'lov muddatlarini kechiktirildi.

Eksport-import operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan tadbirkorlik subyektlarining 4 trln. so'mlik kreditlarning qaytarish muddatlarini uzaytirildi.

Muddati uzaytirilgan kreditlar qoldig'i 2023-yil 1-yanvar holatiga 75 trln. so'mni tashkil etib, 64,0 trln. so'mi (86 foizi) yuridik shaxslar va 11,0 trln. so'mi (14 foizi) jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keldi.

2022-yilda undirilishi istiqbolsiz bo'lgan bir yildan ortiq muddat davomida qaytarilmagan mijozlarning 6,2 trln. so'mlik "umidsiz" toifaga tushib qolgan kreditlari balansdan chiqarildi.

Banklar tomonidan 2022-yilda aktivlar bo'yicha 11 trln. so'm miqdorida qo'shimcha zaxiralar yaratildi hamda muammoli kreditlarni zaxiralar bilan qoplanish darajasi 1,3 barobarga oshib, 2023-yil 1-yanvar holatiga 102 foizga yetdi. Provardida, 2022-yilda muammoli kreditlar ulushi 1,6 foiz bandga yoki 3,6 foizgacha (14 trln. so'm) kamaydi¹⁶.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot ishimizda amalga oshirilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Tijorat banklarida muammoli aktivlarni kelib chiqishiga ichki va tashqi omillar sabab bo'ladi. Ichki omillar quyidagilardan iborat:
 - mijozning kredit olish uchun taqdim qilingan arizasiga ilova qilingan hujjatlari kredit mutaxassislarini tomonidan to'liq o'rganilmasdan, uning kreditiga layoqati va potensiali yetarlichcha tahlil qilinmasdan kredit ajratilishi;
 - kredit ta'minoti uchun yetarlichha likvid ta'minot olinmasligi;
 - kredit davri davomida monitoring ishlarning o'z vaqtida olib borilmasligi.

Tashqi omil sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- mijozning moliyaviy xolatini yomonlashuvi;
- kredit ta'minotini qiymatini qardsizlanishi va yo'qolishi/buzilishi;
- mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy muhitning o'zgarishi;
- iqtisodiy inqirozlar va boshqa fors-mojor holatlar.

15 https://cbu.uz/oz/press_center/reports/1077776/

16 https://cbu.uz/oz/press_center/reports/1077776/



2. Tijorat banklarida muammoli aktivlarni kamaytirishda quyidagi amallarni bajarish talab etiladi:
- muammoli aktivlarni vujudga kelishini oldini olish uchun aktivlarni joylashtirishda uning qaytishini mu-kammal o'rganib chiqish;
 - kredit byurosi faoliyatini oshirish, ushbu tashkilot tomonidan berilgan ma'lumotni to'g'rilingiga ularni va ularga ma'lumot beruvchi tashkilotlar javobgarligini ta'minlash hamda tijorat banklari tomonidan har bir mijoz bo'yicha kredit byurosidan ma'lumot olish majburiyigini va ushbu ma'lumotlar salbiy bo'lganda kredit ajratmaslikni me'yoriy hujjatlarga kiritish;
 - kredit byurosida kredit tarixi yomon mijozlar ro'yxatini ya'ni qora ro'yxatni shakllantirish va bu ro'yxatdagi-larga asosli ma'lumotlar bilan o'zini oqlamagungacha moliyalashtirishni to'xtatish;
 - tijorat banklarida muammoli aktivlar bilan shug'llanuvchi alohida bo'linma tashkil qilish, bo'linma tarkibi-ga yurist shtatini kiritish va bu bo'lim faoliyatini boshqa aktiv amaliyotlar bilan shug'llanuvchi bo'limlar faoliyati bilan uyg'unlashtirish hamda bankdagi barcha aktiv amaliyotlarni ko'rib chiquvchi qo'mitalarga ushbu bo'lim mutaxasislaridan birini a'zolikka kiritish;
 - mamlakatimizda muammoli aktivlar bilan shug'llanuvchi va ularni sotib olish imkoniyatiga ega kollektrlik organlarini tashkil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. The effect of bank management on liquidity // Academy of Banking Studies Journal. Vol. 1, Issue 4, May 2022. Scopus, ISSN: 1939–2230.
2. Western and Eastern practices in banking // American Economic Journal: Applied Economics. Vol. 8, Issue 3, 2020. Scopus, (ISSN: 1945–7782).
3. Питер С.Роуз. Банковский менеджмент.
4. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка. – М.: КНОРУС, 2021. 580 с.
5. The impact of asset quality on bank risk management // Asian Academy of Management Journal of Accounting and Finance. Vol. 6, Issue 6, 2021. Scopus, ISSN: 1823–4992.
6. Analysis of bank liquidity and asset quality // Annals of Economics and Finance. Vol. 8, Issue 4, 2018. Scopus, ISSN: 1529–7373.
7. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка. – М.: КНОРУС, 2021. 580 с.
8. Усокин В.М. Современный коммерческий банк. – Москва: Вазар-Ферро, 2018. – С. 218–276.
9. Н.Соколинская, Лаврушина О.И. Банковское дело. – Москва: ФиС, 2020. – С. 101–102.
10. "Hamkorbank" ATB ning yillik hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida aktivlarning sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralalar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi 2696-sonli 2015-yil 14-iyuldag'i nizomi.
12. Mathieu Boudreault, Geneviève Gauthier, Tommy Thomassin. Estimation of correlations in portfolio credit risk models based on noisy security prices. <https://www.sciencedirect.com/science/pii/S0165188915001906> Research article Journal of Economic Dynamics and Control, Volume 61, December 2015, Pages 334–349.
13. Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. – Toshkent: Moliya, 2002. -B. 137–138.
14. Berdiyarov (2017) "Bank aktivlari va passivlarini boshqarish" O'quv qo'lanma. -T. : Moliya, – 348 b.
15. <https://cbu.uz/> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
16. "Hamkorbank" ATB ning yillik hisobot ma'lumotlari.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.